

**“O‘zbektelekom” AKning 2025-yil davomida korrupsiyaviy xatti-harakatlarga
doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi
HISOBOT**

I. Umumiy ma'lumot

Aloqa kanallari orqali jami **103** ta murojaat kelib tushgan. Shu jumladan, telegramm bot kanali orqali **9** ta, ishonch telefon raqamiga **93** ta va elektron pochta manziliga **1** ta murojaat kelib tushgan.

II. Ko'rib chiqish natijalari

Ushbu murojaatlarni o'rganib chiqish natijalariga ko'ra **3** ta Korrupsiyaviy mazmundagi murojaatlar aniqlanib, xodimlarga tegishli intizomiy choralar ko'rildi.

Bundan tashqari maxsus telegram bot kanali orqali kelib tushgan murojaat bo'yicha ichki mehnat tartib qoidalari buzilganligi haqida murojaat kelib tushgan bo'lib ushbu murojaat Komplaens departamenti xodimlari tomonidan barvaqt bartafat etilib, murojaatchiga tegishli tushuntirish ishlari olib borildi, murojaat qilingan xodimga nisbatan intizomiy jazo qollanildi.

Qolgan murojaatlar yuzasidan ularning mazmuni korrupsiyaviy xatti-harakatlar bilan bog'liq bo'lmagan, jismoniy shaxslar tomonidan telekommunikatsiya xizmatini ko'rsatish yuzasidan kelib chiqqan muammolarni ijobiy hal qilish bo'yicha murojaatlar (Wi-Fi qurilmasining nosoz holatda ekanligi, internet xizmatining sifat darajasi pastligi yoki ma'lum bir sabablarga ko'ra ishlamasligi va boshqalar) sifatida qayd qilindi. O'z navbatida, har bir murojaat Kompaniya tegishli mutaxassislariga yo'naltirilib, fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal qilinishiga erishildi.

III. Minimallashtirish choralari.

Bir yilda bir marotaba Korrupsion xavf-xatarlarni baholash reestrini olib borish (bir yilda kamida bir marotaba), Kompaniya xodimlarining huquqiy ong va madaniyatni yukasaltirish boyicha o'quv seminarlar o'tkazish orqali Korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir qilinishini oldini olish bo'yicha malakasini oshirish (bir yilda kamida bir marotaba).

“O‘zbektelekom” AK
Komplaens departamenti
direktori



R. Toshpo'latov